Toshkent kimyo-texnologiya institutida bo‘lib o‘tgan Karyera kunlari bo‘yicha ma’lumot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2022- yil 4- mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 19-sonli bayonida Talabalar ijtimoiy sharoitini yaxshilash va bandligini ta’minlash bo‘yicha Respublika komissiyasi tarkibi, Talabalar ijtimoiy sharoitini yaxshilash va bandligini ta’minlash bo‘yicha hududiy komissiyalarning namunaviy tarkibi, Oliy ta’lim muassasalari talabalari bandligini ta’minlash chora-tadbirlari bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlanganligi, Vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimliklar rahbarlari mazkur bayon topshiriqlarining o‘z muddatida va sifatli ijrosini ta’minlash, oliy ta’lim muassasalari talabalari bandligini ta’minlash masalalarini samarali tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Mazkur bayonni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligini 2022-yil 17-martdagi 105-sonli buyrug‘i va Toshkent kimyo-texnologiya isntitutining 15-martdagi 80-buyrug‘i tasdiqlangan.

Joriy 2022-yil 19- mart kuni Toshkent kimyo-texnologiya instituti tomonidan olib borilayotgan tashkiliy ishlar, talaba-yoshlarni ish bilan ta’minlash hamda ularga imkoniyat va qulayliklar yaratib berish, qo‘shimcha ish o‘rinlarini joriy qilish maqsadida institutda Karera markazi ish faoliyatini boshladi. Karera markazi tashkilotlar bilan muntazam aloqada bo‘lib, institutning rasmiy veb-saytida va telegram kanalida bo‘sh ish o‘rinlari xhaqida doimiy yoritib bormoqda. Joriy yilda institut bo‘yicha jami 8 marotaba “Karera kuni” tadbirlari o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu tadbirlarda jami 150 ga yaqin korxona va tashkilotlar ishtirok etishdi va 400 nafarga yaqin talabalar ishga tavsiya etildi. Xususan:

Joriy 2022-yil 25 -mart kuni Toshkent kimyo-texnologiya instituti Karera markazi, Shayxontohur tuman prokuraturasi hamda tuman bandlikga ko'maklashish agentligi bilan birgalikda bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkasi “Karera kuni” o‘tkazildi. Ushbu tadbirda 50 dan ortiq tashkilotlar va 400 dan ortiq talaba-yoshlar qatnashdilar. Tashkilotlar 100 dan ortiq talabaning rezyumelarini qabul qilishdi.

Joriy 2022-yil 31 -mart kuni “Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi” fakultetida “Karera kuni” mehnat yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda 15 dan ortiq korxonalar ishtirok etdi va 97 nafar talaba korxonalarga tavsiya etildi.

Joriy 2022-yil 5- aprel sanasida “Menejment va kasb ta’limi” fakultetida “Karera kuni” mehnat yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda fakultet bilan doimiy aloqalarni o‘rnatgan 25 ta turli korxona va tashkilotlardan kadrlar masalalari bo‘yicha mas’ul mutasaddilar ishtirok etishdi. Fakultet bo‘yicha 73 nafar talaba turli korxona va tashkilot vakillarining dastlabki suhbatidan o‘tib keyingi bosqichga nomzodlar taqdim etildi.

Joriy 2022-yil 14 -aprel sanasida “Vinochilik texnologiyasi va sanoat uzumchiligi” fakultetida “Karera kuni” mehnat yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda 20 dan ortiq korxonalar qatnashdilar, fakultet bo‘yicha 40 nafar talaba korxona va tashkilotlarga tavsiya etildi.

Joriy 2022-yil 13 may sanasida “Yoqilg‘i va organik birikmalar kimyoviy texnologiyasi” va “Oziq ovqat mahsulotlari texnologiyasi” fakultetlarida “Karera kuni” mehnat yarmarkalari bo‘lib o‘tdi. Tadbirda 27 ta tashkilotlardan mas’ul xodimlar ishtirok etdi. Fakultetlar bo‘yicha 83 nafar talaba korxona va tashkilotlarga ishga tavsiya etildi.

Joriy 2022-yil 20 -may kuni “Menejment va kasb ta’limi” fakultetida “Karera kuni” mehnat yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda 10 dan ortiq korxonalar ishtirok etdi va 50 nafar talaba korxonalarga tavsiya etildi.

Joriy 2022-yil 20 may kuni “Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi” fakultetida “Karera kuni” mehnat yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda yurtimizda keng ko‘lamda ish boshlayotgan yangi kompaniya Ferkensco Management Limited tashrif buyurdi. Kompaniya mutasaddilari fakultetning «Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi» kafedrasi bitiruvchilar bilan uchrashishdi. Korxona tomonidan kelgan mehmonlar bitiruvchi talabalarning o‘zlarini yo‘nalishlariga mos ish o‘rinlari haqida tanishtirib o‘tdilar.

2022-yil 31-may Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi tomonidan Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi fakulteti bitiruvchi kurs talabalari uchun karera kuni o'tkazildi.Tadbirga 15 yildan ortiq vaqt davomida kimyoviy xomashyo va tayyor mahsulotlarning asosiy yetkazib beruvchisi hisoblangan “Merit Chemmicals” korxonasi tashrif buyurdi. Korxona mutasaddilari tadbirni ochiq muloqot tariqasida davom etirdilar, talabalar bilan o‘zaro suhbatlashib va talabalar uchun qulay bo‘lgan o‘z ish takliflarini berdi. Tadbir davomida korxona vakillari tomonidan Kimyo fanidan boshlang‘ich bilimlarni aniqlash maqsadida test o‘tkazishdi.

2022-yil 2-iyun kuni "Merit Chemical" korxonasi tashabbusi bilan korxona rahbarlari va mutasaddilari va Toshkent kimyo-texnologiya instituti bitiruvchilari ishtirokida o‘zgacha formatda uchrashuvi tashkil etildi. Uchrashuvda korxonaning barcha ishchi xodimlari, ta'sischilari ishtirok etishdi. Korxona rahbarlari korxonada ishlash istagida bo‘lgan bitiruvchi talabalarimizning har birlari bilan suhbatlashishdi. Ularning bilimi, dunyoqarashi, kelajakdagi rejalari bilan tanishishdi. Uchrashuv davomida alohida iste’dodi, bilimi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan bitiruvchilarimiz "Merit Chemical" korxonasiga ishga taklif qilindi.

"Marketing va talabalar amaliyoti" bo'limi va "PREMIER ELECTROTECH" MChJ qo'shma korxonasining aloqalarini mustahkamlash hamda bitiruvchilar salohiyatidan unumli foydalanish maqsadida, 11-iyun kuni institutning asosiy binosida "PREMIER ELECTROTECh" MChJ qo‘shma korxonasi mas’ul xodimlari bilan institutning 2022- yil bitiruvchilari o‘rtasida ishga yo’naltirish bo‘yicha ochiq muloqot shaklidagi tadbir bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbirda "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo va oziq-ovqat sanoati)" va "Oziq-ovqat sanoati mashina va jihozlari" yo‘nalishi talabalari ishtirok etdilar. Tadbir talabalar uchun juda ham unumli va kerakli ma'lumotlarga boy bo'ldi. Tadbir davomida korxona mas'ullari talabalarga o'z bo'sh ish o'rinlarini taqdim etdilar.